

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA XAVF SOLUVCHI TAHDIDLAR

Norbekova N.M.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistrant talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kundagi global darajadagi iqtisodiy muammolardan sanalgan oziq-ovqat-xavfsizligini ta’minlashda xavf soluvchi ichki va tashqi tahdidlar va oziq-ovqat xavfsizligining mamlakatimizdagi o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat xavfsizligi, ichki va tashqi tahdidlar, xavfsiz iste’mol, oziq-ovqat sanoati, agrosanoat kompleksi, ratsional iste’mol me’yorlari.*

Аннотация: *В данной статье освещается современный глобальный уровень экономических, внутренних и внешних угроз, связанных с обеспечением безопасности продовольственных продуктов, а также специфика обеспечения безопасности продовольственных продуктов в нашей стране.*

Ключевые слова: *продовольственные товары, продовольственная безопасность, внутренние и внешние угрозы, безопасное потребление, продовольственная промышленность, агропромышленный комплекс, нормы рационального потребления.*

Abstract: *This article highlights the current global level of economic, internal and external threats related to food safety, as well as the specifics of ensuring food safety in our country.*

Key words: *food, food security, internal and external threats, safe consumption, food industry, agro-industrial complex, norms of rational consumption.*

KIRISH

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oziq-ovqat yetishtirish borasida olib borayotgan samarali faoliyatga qaramasdan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sishi aholi soni o‘shidan orqada qolmoqda, bu esa qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun yetarli sharoit mavjud bo‘lmagan mamlakatlarda muammo tobora chuqurlashib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Yer yuzida aholi sonining o‘sishi, iqtisodiy tangliklar, global iqlim sharoitining o‘zgarishi va boshqa omillar sababli insoniyatning oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish tobora qiyinlashmoqda.

Birlashgan Millatlar tashkilotining (BMT) Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hamda Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 million dan ortiq kishi, ya’ni deyarli har 8 odamning biri to‘yib ovqatlanmayapti.

Eng so‘nggi tadqiqotlar esa sayyora aholisining 30 foizidan ziyodi to‘yib ovqatlanmaslik oqibatida eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosidan aziyat chekayotganligini, 52 mamlakatda ochlikning «jiddiy», «xavotirli» va «favqulodda jiddiy» darajalari qayd etilganini ko‘rsatmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda qishloq xo‘jaligi muhim o‘rin tutadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev, 2024 yil 20 noyabrda bo‘lib o‘tgan parlament majlisidagi nutqida aholi soni ko‘payib borayotgan hozirgi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash eng dolzarb vazifa ekanini ta‘kidlab, «Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash eng dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat bu sohadagi dasturlar ijrosini ta‘minlab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar oshirish, har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazishi zarur»ligi yaqin kelajakdagi asosiy vazifalardan biri ekanligini ko‘rsatib o‘tdi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqaror rivojlantirish, fuqarolarning sog‘lig‘i va hayotini yaxshilash, mamlakat mustaqilligini barqaror saqlashning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — oziq-ovqat xavfsizligi tizimini tahlil qilish, uning barqarorligini ta‘minlashga tahdid soluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida oziq-ovqat xavfsizligining nazariy va amaliy masalalarini hal qilish hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi, insoniyatning turmush farovonlikdagi rolini asoslashga turli MDH iqtisodchi olimlaridan D.V.Zerakalov tomonidan “Oziq-ovqat xavfsizligi” monografiyasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari jahon tarixiy jarayonlarida ko‘plab amaliy tahlillar keltiriladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash suv resurslarining XXI asrga borib tanqisligi yuzaga kelishi hamda bu global iqtisodiy muammo aylanishi haqida ko‘plab rasmiy statistik materiallar tahlili olib boriladi[2]. Yana bir iqtisodchi olim L.Revenko o‘zining “Oziq-ovqat xavfsizligi: yechimini topish imkoni mavjud” rasmiy maqolasida jahon sahnasida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha asosan tashqi oqimlar ya‘ni mamlakatlar ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyatiga bog‘liq holda taqsimlash masalasini ko‘tarib chiqadi[3]. O‘zbekistonda tadqiq qilinayotgan muammoning ayrim tomonlari umumiy tarzda H.P.Abulqosimovning “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” o‘quv qo‘llanmasida oziq-ovqat xavfsizligi muammosi umumiy tarzda o‘rganilgan bo‘lsa[4] yana bir iqtisodchi olimlarimizdan N.I.Saidaxmedovanning “Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning nazariy jihatlar va ustuvor yo‘nalishlari” nomli monografiyasida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar majmui o‘rganilgan, jumladan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta‘minlashga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash hamda ularning tasnifini ishlab chiqilgan[5]. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Shodmonov, A.O‘lmasov, T.Jo‘raev, D.Tojiboevalar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ularning o‘quv qo‘llanma va dasrliklarida ayrim qirralari o‘rganilgan. Ta‘kidlash lozimki, xorijlik

olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko‘p yillik rasmiy nashlardan foydalangan bo‘lsada, lekin milliy iqtisodiyot doirasida barataraf etish bo‘yicha amaliy tavsiya va takliflar berilmagan. O‘rganilgan tadqiqotlarda asosan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi global iqtisodiy xavfsizlikni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qarab chiqilgan.

Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini baholash va ta‘minlashni ilmiy-nazariy hamda oziq-ovqat xavfsizligi tizimini tahlil qilish, uning barqarorligini ta‘minlashga tahdid soluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha yetarli darajada e‘tibor qaratilishi zarurligi mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishini olib borish sifatida tanlashga asos bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligi tizimini tahlil qilish, uning barqarorligini ta‘minlashga tahdid soluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq ustuvor vazifalar belgilab olingan. Maqolani yozishda tahliliy, solishtirma, statistik va ekspert baholash usullari orqali milliy va xalqaro manbalar asosida oziq-ovqat xavfsizligi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi va O‘zbekistonning oziq-ovqat siyosati qo‘shni davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi, FAO, BMT va Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida holat baholandi hamda soha mutaxassislarining fikr va tavsiyalari o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Oziq-ovqat xavfsizligidan ko‘zlangan maqsad mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligi va barqarorligini, aholini va har bir fuqaroning oziq-ovqat mahsulotlariga fiziologik minimumga muvofiq miqdoriy va iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan erishishini kafolatlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsiz iste‘molini ta‘minlashdan iboratdir.

Global Hunger Index (GHI) xalqaro reytinglar bo‘yicha O‘zbekiston 2022 yilda 121 mamlakat orasida 21-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2024 yilda esa O‘zbekiston «go‘dakda qo‘ng‘iroqlik (undernourishment)», bolalarning bo‘g‘imi pastligi (stunting) va og‘irligi (wasting) kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha juda past ahvolda ekani, ya‘ni «past hunger level» kategoriyasiga kirgani ma‘lum qilingan. Bu ko‘rsatkichlar oziq-ovqat yetishmasligi bo‘yicha jiddiy muammo mavjud emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu — «barcha jihatdan mukammal oziq-ovqat xavfsizligi» degani emas, faqat «juda ko‘p oziq-ovqat yetishmasligi mavjud emas» degan past darajada ekanligini bildiradi.

Global Food Security Index (GFSI) xalqaro reytinglar bo‘yicha 2022 yilda O‘zbekiston 113 ta mamlakat orasida 73-o‘rinda bo‘lgan. Hozirda O‘zbekiston 2019-2022 yillarida 12 ta pog‘ona yuqorilagan va “eng ko‘p ʻxshilangan 10 ta mamlakat” orasidan o‘rin olgan. Indeksda «iqtisodiy mavjudlik (affordability)», «sifat va xavfsizlik (quality & safety)», «tozalik va mutobiqlik (stability & adaptation)» kabi komponentlar bor. Masalan, O‘zbekiston “iqtisodiy mavjudlik” bo‘yicha 18 pog‘ona ko‘tarilgan. Bu ko‘rsatkichda ham o‘sish bor, lekin O‘zbekiston hali «o‘rta darajali» oziq-ovqat xavfsizligi bilan davlatlar qatorida ekani ko‘rinadi. Ya‘ni, yechiladigan muammolar mavjuddir.

O‘zbekistonning oziq-ovqat siyosati qo‘shni davlatlar tajribasi bilan taqqoslanganda, quyidagi 1-jadvalda keltirilgan solishtirma tahlil natijalariga erishildi.

O‘zbekistonning oziq-ovqat siyosati qo‘shni davlatlar tajribasi bilan solishtirma tahlili

1-jadval

| Jihat | O‘zbekiston | Qozog‘iston | Qirg‘iziston |
|--------------|---------------------------|--------------------|------------------|
| Huquqiy baza | Yangi qonunlar, 2026-2030 | Oziq-ovqatni ichki | Dasturlar mavjud |

“O‘zbekistonda yangi uyg‘onish – Uchinchi Renessans: Ilm-fan taraqqiyotida yoshlarning o‘rni”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining maqolalar to‘plami
1-qism

| | | | |
|--|--|--|---|
| va strategiya | davr ustuvorligi, oziq-ovqat xavfsizligi qonunlari qabul qilingan. | ta‘minlashga katta rejalar; oziq xavfsizligi — milliy xavfsizlik jihatida. | (2019-23, 2025-30); oziq ta‘minotiga, ta‘m va sifatga e‘tibor berilgan. |
| Ichki ishlab chiqarishni rag‘batlantirish | Ichki ishlab chiqarishni va importni kamaytirishni ko‘zlaydi. | Allaqachon yuqori darajada ichki ta‘minlashga ega; 2028 yilgacha to‘liq o‘zini ta‘minlash maqsad etib qo‘yilgan. | Ayrim oziq-ovqat turlari bo‘yicha ichki ta‘minlashga qadamlar qo‘yilgan. |
| Oziq-ovqat sifat va xavfsizlik | Nazorat kuchaytirilmoqda, sifat muammolari mavjud. | Nazorat tizimlari mavjud, ammo yangilanish kerak; import bog‘liqligi ba‘zi turlarda saqlanmoqda. | Sifat va oziq-ovqat xavfsizligida ustuvorlik berilgan, ammo logistika va qayta ishlashda muammolar. |
| Importga bog‘liqlik | Yani burilishda, ammo importdan to‘liq mustaqil emas. | Oziq-ovqat turlarda importga bog‘liqlikni sezilarli darajada kamaytirgan. | Ba‘zi turlarda o‘zi ta‘minlamoqda, ammo muammolilari bor. |
| Oziq-ovqat yo‘qotish va ratsional iste‘mol | Oziq-ovqat yo‘qotish, ratsional iste‘mol yo‘nalishlari alohida dasturda ko‘rilgan. | Bunday jihatlardan kelib chiqib, asosan ishlab chiqarishga e‘tibor qaratilgan. | Ratsional iste‘mol va oziq –ovqat yo‘qotish jihatlari kamroq qayd etilgan. |

Demak, yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda oziq-ovqat siyosati keyingi yillarda keskin modernizatsiyalanmoqda: qonunchilik, sifat nazorati, oziq-ovqatni yo‘qotishni kamaytirish va ratsional iste‘molga e‘tibor qaratilmoqda. Qozog‘iston bu sohada bir oz oldinda turganday ko‘rinadi — ichki ishlab chiqarish hajmi katta, strategiya aniq, “tarmoqqa egalik” yoki eksportga chiqish imkoniyatlari mavjud. Qirg‘izistonda ham oziq-ovqat siyosati tizimli ravishda rivojlanmoqda, ammo infratuzilma, qayta ishlash, logistika kabi jihatlarda hanuz kamchiliklar mavjud. O‘zbekiston uchun muvaffaqiyat kaliti — ichki ishlab chiqarishni yaxshi tashkil qilish, sifat va xavfsizlikni ta‘minlash, importdan bog‘liqlikni kamaytirish, va oziq-ovqat yo‘qotishni minimallashtirishda turibdi. Qozog‘iston tajribasidan saboq olish mumkin: qayta ishlash, eksportga yo‘nalish, zaxiralar shakllantirish. Qirg‘iziston tajribasi esa oziq moddani ta‘minoti va ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha sharqona kompleks yondashuvni ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash holati FAO, BMT va Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida o‘rganildi va tahlil qilindi. Statistika qo‘mitasi ma‘lumotiga ko‘ra, 2018 yilda O‘zbekistonda aholining 6,3% qismi oziq-ovqat yetishmasligi (food shortage) bilan to‘qnashgan. FAO qayta hisoblashiga ko‘ra, 2016-2018 yillarda O‘zbekistonda oziq-ovqat yetishmasligi darajasi 2,8% (taxminan 0,9 mln kishiga) bo‘lgan, 2017-2019 davrida esa 2,6% (taxminan 0.8 mln kishiga) ekanligi ma‘lum qilingan. FAO profilida O‘zbekistonda 1990-92 yillarga nisbatan oziq-ovqat ta‘minoti va iste‘moldoshlikda ma‘lum rivojlanish yuz berganligi ko‘rsatilgan. FAO va O‘zbekiston

o‘rtasida 2021-2025 yillarni o‘z ichiga olgan davlat dasturi — Country Programming Framework (CPF) —bu oziq-ovqat tizimi transformation (iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan) maqsadida imzolangan. Ratsional me‘yorlar darajasida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulot-larining iste‘moliga erishish uchun qishloq xo‘jaligini, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, aholining iste‘mol madaniyatini yanada oshirish talab etiladi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda tashqi va ichki tahdidlarni ham nazarda tutish muhim sanaladi.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligiga tashqi tahdidlar mamlakat tashqarisida, shu jumladan jahon va global miqyoslarda hamda qo‘shni va hamkor mamlakatlarda yuzaga keladigan va unga xavf tug‘diradigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, omillar hamda voqeliklarda namoyon bo‘ladi. Mamlakat ichida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan, xavf soladigan, uni qiyinlashtiradigan, muammoli vaziyatlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladigan omillar, jarayon va voqeliklar ichki tahdidlar, deb ataladi.

Bizningcha, O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda mamlakat tashqi tahdidlari qatoriga quyidagilar kiradi:

□ Global iqlim o‘zgarishi: Iqlimga chidamli ekin turlarini seleksiya qilish, iqlim modellari asosida prognoz tizimini yaratish, “yashil qishloq xo‘jaligi” dasturini kengaytirish.

□ Importga yuqori bog‘liqlik: Importni diversifikatsiya qilish, strategik mahsulotlar (guruch, yog‘, shakar) bo‘yicha mahalliy ishlab chiqarishni ko‘paytirish.

□ Geosiyosiy beqarorlik va transport yo‘llaridagi xatarlar: Milliy logistika infratuzilmasini mustahkamlash, qo‘shni davlatlar bilan oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha hamkorlik platformalarini rivojlantirish.

□ Global oziq-ovqat narxlarining o‘sishi: Milliy oziq-ovqat bozorini monitoring qilish, inflyatsiyaga qarshi moliyaviy buferlar va subsidiyalar tizimini shakllantirish.

□ Chet el patogenlari va fitosanitar xavflar: Milliy bioxavfsizlik laboratoriyalarini rivojlantirish, chegarada fitosanitar nazoratni kuchaytirish.

Shu bilan bir qatorda, bizningcha, O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda mamlakat ichki tahdidlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Qishloq xo‘jaligi hosildorligining pastligi: Agroinnovatsiyalarni joriy etish, tuproq unumdorligini monitoring qilish, zamonaviy irrigatsiya (tomchilatib sug‘orish, dron orqali nazorat) texnologiyalarini kengaytirish.

Suv resurslarining yetishmasligi: Suv tejoychi texnologiyalarni rag‘batlantirish, suvni qayta ishlash va qayta foydalanish tizimini joriy etish, suv boshqaruvini raqamlashtirish.

Qishloq xo‘jaligidagi mehnat resurslarining kamayishi: Agrar sohada yoshlar va ayollar ishtirokini oshirish, agrotexnoparklar va startap dasturlari orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish.

Mahalliy ishlab chiqarishning hududiy nomutanosibligi: Har bir hududda ixtisoslashgan mahsulotlar salohiyatini aniqlash va mintaqaviy agroklastlar tashkil etish.

Oziq-ovqat zaxiralarining yetarli emasligi: Strategik oziq-ovqat zaxiralarini shakllantirish va “oziq-ovqat rezervi fondi”ni yaratish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi — iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri. Bu sohada barqaror rivojlanish uchun innovatsion agrotexnologiyalar, suv va yer resurslarini samarali boshqarish, importga qaramlikni qisqartirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish juda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish davri: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 20 noyabrda bo‘lib o‘tgan <https://president.uz/uz/lists/view/7716> parlament majlisidagi nutqi.

2. Зеркалов Д.В. Продоволственная безопасность [Электронный ресурс]: Монография / Д. В. Зеркалов. – Электрон. данные. – К.: Основа, 2009.

3. Лилия Ревенко. Продоволственная безопасность: решение возможно. https://mgimo.ru/files/226753/2012-09_interaffairs_Revenko.pdf.

4.Абулқосимов Ҳ.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. - Т.:Академия, 2012.-12-бет;

5.Saidaxmedova N.I. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatleri va ustuvor yo’nalishlari. Monografiya.-Т.: “Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti, 2021 yil